



Vositachilik shartnomasi

Platformadan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha

So'ngi yangilanish:	10.06.2025
Vositachi:	"OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON O'G'LI" YaTT
Hujjat turi:	Ommaviy oferta
Huquqiy maqom:	Elektron shartnoma
Platforma:	inpay.uz

Kirish

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasi, 367-moddasi va boshqa tegishli huquqiy normalar asosida tuzilgan bo'lib, "OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON O'G'LI" YaTT (keyingi o'rinlarda "Vositachi") tomonidan ommaviy tarzda taklif etilayotgan xizmatlar uchun tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs (keyingi o'rinlarda "Mijoz" yoki "Do'kon egasi") ushbu platformada buyurtma berish yoki ro'yxatdan o'tish orqali ushbu ofertaning barcha shartlarini qabul qilgan (ya'ni, aksept qilgan) hisoblanadi va tomonlar o'rtasida elektron shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Shartnoma elektron tarzda tuziladi va elektron hujjatlar to'g'risidagi qonunlarga muvofiq yuridik kuchga ega.

1. Atamalar

1.1. Oferta – Vositachi tomonidan ommaga taqdim etilgan shartnoma taklifi.

1.2. Platforma – Vositachi tomonidan ishlab chiqilgan va xizmatlar taklif qilinadigan raqamli muhit: veb-sayt, Telegram bot, mobil ilova va boshqalar.

1.3. Aksept – Do'kon egasi tomonidan ushbu ofertani qabul qilish, ya'ni xizmatga buyurtma berish, to'lovni amalga oshirish yoki rozilik tugmasini bosish va h.k. orqali rozilik bildirilishi.

1.4. Xizmat – Vositachilik xizmatlari, API tizimlari yoki boshqa turdagi raqamli mahsulotlarni yaratish, joylashtirish, sozlash, texnik yordam ko'rsatish hamda boshqa turdagi xizmatlar taqdim etish.

1.5. Veb sayt – Vositachining shaxsiy yoki ommaviy loyihasi bo'lgan veb sayt.

1.6. To'lov tizimi – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan litsenziyalangan, foydalanuvchilarga elektron tarzda qonuniy to'lovlar va pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini beruvchi tizim (Payme, Click, Plum, Upay, UzumBank va boshqalar).

1.7. To'lovchi – Platforma orqali xizmat (yoki mahsulot) uchun to'lovni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

1.8. To'lov havolasi – Vositachi tomonidan mijozga taqdim etiladigan, to'lovlarni to'lov tizimi orqali amalga oshirishga yordam beradigan elektron sahifa.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Vositachi Mijoz topshirig'iga muvofiq haq evaziga o'z nomidan va Mijoz hisobidan quyidagi bitimlarni tuzish majburiyatini oladi:

1. Mahsulot yoki xizmatlar bo'yicha shartnomalarni tuzish.
2. To'lov tizimlari bilan bitimlarni imzolash.

2.2. Vositachi Mijozlarga pulli asosda taqdim etilishi mumkin bo'lgan xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday xizmatlarni faollashtirish Mijoz tomonidan mustaqil ravishda, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiriladi.

2.3. Bitimlarni tuzishning aniq shartlari, sotishning eng past baholari darajasi va Mijozning boshqa ko'rsatmalari alohida hujjat ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

3. Tomonlarning majburiyatlari

3.1. Vositachining majburiyatlari

3.1.1. Mijoz topshirig'i asosida litsenziyalangan to'lov tizimlari bilan shartnomalar tuzish va hamkorlikni yuritish.

3.1.2. Faoliyatni mijoz manfaatlarini ko'zlab, eng foydali shartlarda amalga oshirish.

3.1.3. To'lov tizimlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z harakatlari uchun mas'uliyat Vositachiga yuklanadi. To'lov tizimlarining texnik xatolari va uchinchi tomon nosozliklari uchun Vositachi javobgar emas.

3.1.4. Mijoz Vositachining harakatlarini o'z topshirig'i asosida bajarilgan deb hisoblaydi.

3.1.5. Tijorat sirini saqlash majburiyati.

3.2. Vositachining huquqlari

3.2.1. To'lov tizimlari bilan shartnoma tuzish va ularga xizmatlarni ulash.

3.2.2. Tranzaksiyalarni qayd etish, mablag'larni vaqtincha saqlash, audit yuritish va kelishilgan tartibda o'tkazish.

3.2.3. Har bir to'lov uchun belgilangan komissiyani avtomatik ushlab qolish.

3.2.4. API integratsiyasi, xavfsizlik sozlamalari va interfeyslarni mustaqil boshqarish.

3.2.5. Shubhali to'lovlarni bloklash huquqi.

3.2.6. Qonunbuzarlik holatlarida operatsiyalardan voz kechish.

3.3. Mijozning majburiyatlari

3.3.1. Shartnoma talablarini bajarish.

3.3.2. Vositachini o'z vaqtida xabardor qilish.

3.3.3. Bajarilgan ishni qabul qilish va kamchiliklar haqida darhol xabar berish.

3.3.4. Komissiya to'lash.

3.3.5. Zarur xarajatlarni qoplash.

3.3.6. Noqonuniy operatsiyalardan foydalanmaslik (pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish va h.k.).

3.4. Vositachi ofertani bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega, yangi tahrir saytda e'lon qilingan kundan 15 kun o'tgach kuchga kiradi.

4. Tomonlarning javobgarligi

4.1. Tomonlar qonunga muvofiq javobgar.

4.2. Mijoz o'z buzilishlari uchun to'liq javobgar.

4.3. Yechib olish uchun ariza berilmasa, Vositachi javobgar emas.

4.4. Himoyalangan ulanishlardan foydalanish xavfi Mijoz zimmasida.

4.5. Kechikkan to'lovlar uchun kuniga 0.03% jarima.

4.6. Vositachi Mijozning shartnomani o'qimaganligi uchun javobgar emas.

5. Baholar, topshiriqlarni bajarish va hisob-kitoblar tartibi

5.1. Barcha tushumdan komissiya va xarajatlar avtomatik ushlab qolinadi.

5.4. Xizmat komissiyasi va boshqa to'lovlar:

To'lov turi	Tavsif	Miqdori	Izoh
Xizmat komissiyasi	Har bir amalga oshirilgan to'lov uchun	5%	Alohida kelishuvga ko'ra
Integratsiya to'lovi	Texnik ulanish va sozlash	0 so'm	Dastlabki ulanishda
Qo'shimcha xizmatlar	"Rasmiy" belgisi va boshqalar	Kelishuv asosida	Talabga ko'ra
Kechiktirilgan to'lov jarimasi	Belgilangan muddatda to'lanmasa	0.03% kuniga	Har bir kechiktirilgan kun uchun

5.8. Qolgan summa 1–5 ish kuni ichida Mijozga o'tkaziladi.

5.9. Vositachi o'z haqini avtomatik ushlab qolish huquqiga ega.

6. Shartnomani bekor qilish tartibi

6.1. Mijoz istalgan vaqtda akkauntni o'chirib, shartnomadan voz kechishi mumkin.

6.2. Akkaunt o'chirilgandan so'ng shartnoma darhol bekor qilinadi.

6.3. Vositachi belgilangan holatlarda bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

7. Fors-major holatlari

Taraflar tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, epidemiyalar kabi yengib bo'lmay kuch holatlarida javobgarlikdan ozod qilinadi.

8. Nizolarning ko'rib chiqilishi

8.1. Kelishuv yo'li yoki da'vo tartibida hal qilinadi.

8.2. Agar kelishuvga erishilmasa – O'zbekiston Respublikasi sudlarida ko'rib chiqiladi.

9. Boshqa shartlar

9.1. Qonun va odatlar qo'llaniladi.

9.2. Mijoz maxfiylik siyosatiga ham rozilik bildiradi.

10. Maxfiylik siyosati

10.1. Biz email, ism, telefon, Telegram ID olamiz – faqat xizmat ko'rsatish uchun.

10.2. Ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilmaydi.

10.3. Kerak bo'lsa qo'shimcha hujjatlar so'ralishi mumkin – maxfiy saqlanadi.

10.4. Ma'lumotlarni o'chirish istalgan vaqtda @inspire_wallet ga yoki @merchants_uz Telegram yordam guruhiga yozish orqali amalga oshiriladi (muddati 3 ish kuni ichida).

10.5. O'chirilgan ma'lumotlar tiklanmaydi.

11. Biz bilan bog'lanish

Xizmat ko'rsatuvchi:	"OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON O'G'LI" YaTT
INN:	641025183
Bank:	TBC BANK
Hisob raqam:	2021 8000 0073 2179 7002
Email:	support@inpay.uz
Telefon:	+998 33 571-77-17
Manzil:	Toshkent sh., Olmazor tumani, Shifokorlar shaharcha
Platforma:	inpay.uz
Telegram bot:	@inPAYuzbot

So'ngi yangilanish: 10.06.2025